

ISLOM MOLIYASI VA UNI O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA QO'LLASH BOYICHA TENDENSIYALAR

Abdurahimov Islomjon Isroiljon o'gli

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda islomiy moliya tushunchasi, uning an'anaviy moliya tizimidan farqlari va afzallikkali bayon qiladi. Dunyo islomiy moliya bozorining holati, O'zbekistondagi ayni vaqtdagi islam moliyasiga bolgan e'tiboru taqdim etadigan imkoniyatlar va rivojlantirishda vujudga kelgan kamchiliklar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan. Aholining islam moliya mahsulotlariga bo'lgan talab nimaga qondirilmayotganligi va bu borada muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Shariat, islam moliyasi, sudxo'rlik, ribo, ribo an-nasi'a va ribo al-fazl, g'arar murobaha, mushoraka, salaam, istisna, ijara, , mudoraba, inklyuziv rivojlanish

KIRISH

Hozirgi vaqtida dunyoda musulmonlarning soni ikki miliarddan ortiq bo'lib, ularga foizlar (ribo) bilan muomala qilish ta'qiqlangan. Ammo, zamonaviy dunyoda inson e'tiqodi qilayotgan dini uni moliya xizmatlaridan foydalanishdan to'siq bo'la olmaydi. Agarda kimdir odatiy kredit olish tizimini xohlamasa, u uchun boshqa ko'plab muqobil tanlov tizimlari taqdim etiladi. Bunga sabab bo'lib esa, hozirgi demokratik dunyoda hamma teng imkoniyatlardan foydalanishi kerak degan degan yondashuv xizmat qiladi. Yakunda esa, ushbu imkoniyatlar jamiyatda paydo bo'ladigan inklyuziv rivojlanish, ya'ni jamiyat a'zolari o'rtasida adolat bilan taqsimlangan va barcha uchun teng imkoniyatlar beruvchi iqtisodiy rivojlanishga yo'l ochadi.

Hozirda O'zbekistonda islam moliyasiga bo'lgan e'tibot kundan kunga oshib bormoqda. O'zbekiston — Markaziy Osiyorning 36 million ortiq aholiga ega

muhim davlati. Respublikamiz aholining asosiy qismi, ya’ni 95 foizdan ortig‘i muslimmonlardan iborat ekanligini e’tiborga olsak, Islom moliyasi xizmatlarining joriy etilishi va rivojlanishi Xalqimizning moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida” O‘RQ-765-son qonunining qabul qilinishi va bu qonunga asosan islom moliya xizmatlarining nobank moliya muassasalarida joriy etilishi bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.

Islom iqtisodiyotining mohiyati ma’naviy jihatdan bozor iqtisodiyoti tizimini yaratishdan iborat. Islom moliyasida asosiy e’tibor shaxslar va jamiyatlarning haqiqiy ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Islom iqtisodiyoti modelida boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishiga alohida e’tibor qaratiladi, busiz ijtimoiy barkamollik (uyg‘unlik) va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash mumkin emas. Islom moliyasi quyidagi asosiy qadriyatlarni o’z ichiga oladi:

- 1) Islom ma’naviy qadriyatlariga asoslangan iqtisodiy farovonlik;
- 2) Teng huquqlilik va xavf-xatarlarni taqsimlash;
- 3) Odob-axloq qoidalariga rioya qilish va diniy bag‘rikenglik.

Islomiy moliya - bu islomning axloqiy tamoyillariga amal qilgan holda pulni boshqarish va biznes yuritish usuli hisoblanib, u pulning o‘z-o‘zidan hech qanday qiymat yaratmasligi kerak degan ishonchga asoslanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bu shunchaki puldan pul ishlamaslikni ya’ni foizlarni to’lash yoki olishni inkor etadi.

Qur’onda riboning alohida turi aniqlanmagan bo’lsa-da, musulmon ulamolari uni ikki turga ajratganlar: 1) ribo an-nasi'a va 2) ribo al-fazl. Ribo an-nasi'a, kutish uchun mukofot sifatida qarzning foyda bilan qaytarilishini oldindan belgilab qo'yishdir. Riboul-fazl – naqd to’langan qarzning ortiqchasi. U qarzdor tomonidan kreditorga bir xil turdag'i tovarlar ayirboshlash uchun qo’shimcha haq to’lashdan paydo bo’ladi

Yana bir tamoyil shundan iboratki, islom moliyasi inson hayotiga zarar yetkazadigan va shariatda harom deb korsatilgan faoliyat turlariga investitsiya kiritmaslikni talab qiladi. Shuning uchun islomiy moliyaviy xizmatlar spirtli ichimliklar, tamaki va qimor o'yinlari cho'chqa va o'limtik go'shtini yetishtirish kabi narsalarga sarmoya kiritmaydi. Har kim islomiy moliya mahsulot va xizmatlaridan foydalanishi mumkin - siz musulmon bo'lisingiz shart emas

Islom moliyasi mahsulotlarida shuningdek g'arar deb nomlangan atama mavjud bo'lib, arabcha "g'arar" so'zi ancha keng tushuncha bo'lib, so'zma-so'z ma'noda yolg'on, xavf, firibgarlik, noaniqlik yoki halokatga yoki yo'qotishga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfni anglatadi. Islomda g'arar - bu shartnomaning yakuniy natijasi yoki uning predmetining tabiatini va sifati to'g'risida ma'lumot yo'qligi sababli vujudga kelgan yoki tavsifi aniq bo'limgan ehtimoliy ob'ektlarning har qanday bitimini anglatadi. Masalan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) ona qornidagi tug'ilimgan jonivorni sotib olishni, yelindagi sutni o'chovsiz sotishni, o'ljani taqsimlashdan oldin sotishni , sotib olishni va sadaqa qilishni harom qilganlar.

Sudxo'rlik (ribo) aksariyat dinlarda qoralangan faoliyat hisoblanadi , xususan qadimgi yunon faylasuflari Aristotel va Aflatun ham uning oqibati yomon bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirishgan .Davlatning iqtisodiyotga aralashmaslik siyosati tarafdori bo'lgan Adam Smit, sudxo'rlikni doimo tartibga solib turilishi kerak deb hisoblagan .U foizlardan butunlay voz kechish emas ,ammo ularga ma'lum bir darajada chegaralar o'rnatilidhi kerak degan nazariyalar asoschi bo'lgan . Bundan tashqari bir qator olimlar, Jon meynard Keyns (1924), Fisher (1935), Simons (1948) sudxo'rlikka qarshi ba'zi fikrlarni bildirib o'tishdi. Ular banklarning hech qanday talofatlarsiz foiz undirishlarini axloqsizlik va qalloblik debatashdi .

Zamoviy olimlardan Greys va Iqbol islomiy moliya vositalarini: bitimni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tranzaksion bitimlar va bank moliyaviy vositachi sifatida ishtiroy etadigan bitimlarga ajratadilar.Ibrohim Varde islomiy

moliyaviy mahsulotlarni mazkur vositalardan foydalanishda vujudga keladigan turli munosabatlar majmuiga asoslanib tasniflaydi. Shunga muvofiq ravishda u

- 1) sotishga asoslangan mahsulotlar (murobaha, musovama, istisno', salam, tavarruq va
- 2) ijara (yollash)ga asoslangan mahsulotlardir
- 3) foyda va zararlarni bo'lishish va biznesdagi hissadorlikka qaratilgan mahsulotlarni qamrab oladi (muzoraba va mushoraka)

Rus olimi R.I.Bekkin ham islomiy moliya sohasidagi islomiy moliyaviy mahsulotlarning quyidagi tasnifini ajratadi :

- 1) foyda va zararlarni taqsimlash mexanizmiga asoslangan vositalar yoki moliyalashtirishning investisiyaviy vositalari: muzoraba, mushoraka;
- 2) qarz bilan bog'liq moliyalashtirishga asoslangan vositalar: murobaha, salam, shuningdek, istisno' va ijara

Zamonaviy islam moliya dunyosining eng ko'zga ko'rigan mutaxassis Shayx Muhammad Taqiy Usmoniy hisoblanadi. U kishi islomiy bank sohasiga doir bir qancha tashkilotlar a'zosidir. Xususan, Pokiston Islom iqtisodiyoti raisi, Jidda shahridagi Saudiya-Amerika Bankining shar'iy hay'ati raisi, Nyu-York Islom Kengashining shar'iy qo'mitasi raisi, Bahrayn City bankining shar'iy qo'mitasi raisi lavozimlarida faoliyat olib brogan. Bundan tashqari, u shvetsariyaning "Swiss Re Takaful", AQSHnig "Dow Jones Index", Pokistondagi "Centre for Islamic Economics" va "HSBC Amanah Finance Dubai" kabi moliya muassasalariga ham a'zo hisoblanadi

Islom moliyasi bugungi kunda 80 dan ortiq mamlakatlarda tarqalgan 3,9 trillion dollarlik aktivlarga ega bo'lib, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, atigi 10 ta davlat dunyodagi shariatga muvofiq aktivlarning deyarli 95 foizini tashkil qiladi. Saudiya Arabistoni va Eron 25% dan 30% gacha bozor ulushi bilan yetakchilik qilmoqda, undan keyin Malayziya (12%), BAA (10%), Quvayt va Qatar (5,5%), Turkiya va Bahrayn (3,5%), Indoneziya va Pokiston (2%) Bu mamlakatlarda islam moliyasining o'sishini sanoat mahsulotlari o'rnatadi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali amalga

oshiriladi . so'nggi o'n yil ichida islomiy moliya yiliga taxminan 10% sur'atda o'sdi. 2023-yilgi "Global islom iqtisodiyoti holati" hisobotiga ko'ra, 2026-yilga kelib shariatga muvofiq jami aktivlar 5,95 trillion dollargacha oshadiva ushbu proqnozlar yuqorida [keltirib o'tilgan davlatlarning iqtisoidiy farovonligi bilan bevosita bog'liqdir]

Xulosa va takliflar:

O'zbekistondagi islom moliyasi rivojlanishini jadallashtiruvchi omillar

1) Respublikamizda islom moliya tashkilotlarini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar milliy qonunchilik bilan bo'g'liq bo'lib, hozirda amal qilayotgan milliy qonunchilik va me'yoriy hujjatlar an'anaviy kapilastik moliya tizimiga asoslangan.Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan xorij tajribasi o'rgangan holda mahalliy islomiy moliya qonunchiligini ishlab chiqarish zarur

2) Hozirgi vaqtda yurtimizda faqatgina 2 ta oliv ta'lim muassasida islom moliyasi bo'yicha talabalarga bilim berilmoqda.Agarda islom moliyasi jadallik bilan rivojlansa sohada tajribali kadrlar yetishmovchiligi bo'lishi turgan gap.Oliy o'quv yurtlarida islom moliyasini talabalarga o'qitish,sohaga chet ellik mutaxassislarni jalb qilish va ularni muhim adabiyotlar bilan yetarli darajada ta'minlash orqali ushbu muammolarni hal qilish mumkin;

3) So'ngi malumotlarga qaraganda respublikamiz aholisining 20%qismi e'tiqodiy sabablarga ko'ra an'anaviy moliya xizmatlaridan foydalana olishmayapti. Islom moliyasi kirib kelgan taqdirda ham aholimizda uni odatiy tizimdan farqlay olish bo'yicha turli xildagi tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Maxsus kurslarni tashkil etish,islom moliyasi va kapitalistik moliya tizimi o'rtasida farqlarni aholiga turli yo'llar bilan ya'ni ijtimoiy tarmoqlar,televidiniya,matbuot va boshqa shu kabi usullar bilan targib qilish orqali aholi moliyaviy savodxonligini oshirish tizimda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishi mumkin

4) Yangi islomiy mikromoliya tashkilotlari sifatida ochilayotgan istiqbolli raqamli proyekt (Uzum nasiya, Alif, Iman investva boshqa shu

kabi)larni faoliyatini qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar berish orqali respublikamizda islom moliyasi ekotizimini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. The Role of Islamic Finance in the Economy of Uzbekistan Sattorova ;Nasiba Ganijon Kizi ;Department of banking and investment, TSUE
2. ISLOMIY MOLIYA VA O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA UNI QO'LLASH Axmadjonov Oybek Umarxo'jayev Islomxoja Sotvoldiyev Sherzodbek Botirov Timurbek Qo'qon Universiteti
3. LEGAL CHALLENGES HINDERING THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN Alam Asadov 1, Ikhtiyorjon Turaboev2 Submitted on 11 June 2023 / Revised 06 August 2023 / 20 August 2023me 1, Issue 4, July 2023 Overview of Islamic Finance in Uzbekistan: Challenges, and Prospects Botirova Hulkar Olimjonovna Assistant Teacher at "Fundamental Economics" Department, Economics Faculty, Tashkent State University of Economics
4. O'zbekistonda Islom moliyaviy instrumentlaridan foydalanish orqali korporativ sektorni rivojlantirish istiqbollari M.I.Yodgorova
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/17/islamic-finance/>
6. <https://daryo.uz/2024/09/11/ozbekistonda-islam-moliyasi-joriy-etilsa-100-mingta-ish-orni-yaratilishi-mumkin-vatandosh-intellektual-klubida-navbatdagi-muhokama>
7. <https://kun.uz/48512875?q=%2Fuz%2F48512875>